

ZARAR KO'RIB ISHLAYOTGAN KICHIK BIZNES KORXONALARIGA  
INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING XUSUSIYATLARI

**Boboyev Akmal Choriyevich**

**Boltayev Behro'z Tohirovich**

Buxoro muhandislik-texnologiya institute.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11523289>

**Kirish.** Jahondagi rivojlangan mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda kichik biznes korxonalarini rivojlantirish muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, kichik biznes korxonalarini rivojlashtirishda investitsiyalarni jalb etish orqali yuqori samaradorlikka erishgan, eng ilg'or tajribalarga asoslangan AQSh, Germaniya, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Shveysariya, Kanada, Norvegiya, Niderlandiya, Gonkong, Birlashgan Arab Amirliklari va boshqa bir qator davlatlarda bu borada ijobiy holatlar kuzatilgan. Shuningdek, "Jahon tajribasida kichik biznes korxonalarining investitsiyasiz juda sekin rivojlanayotganligi ham barchaga ma'lum". Shunday ekan, jahonning deyarli barcha mamlakatlarida zarar ko'rib ishlayotgan kichik biznes korxonalariga investitsiyalarni jalb etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

2022 yil 28 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni qabul qilinib, ushbu Farmonning III. "Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash" bo'limidagi 29-maqсадida: "Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiyl sektorning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish" o'z aksini topgan.

**Asosiy qism.** 2021 yilda O'zbekiston Respublikasi bo'yicha 98,9 mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu esa o'tgan yilga nisbatan 6,1 foizga ko'p demakdir. Eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdo sohasida (38,9 %), sanoat sohasida (19,5 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida (11,8 %), qurilish sohasida (6,4 %) tashkil etilgan.

Ammo faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 2021 yilda o'tgan yilga nisbatan ko'paygan bo'lsada, Yalmda kichik tadbirkorlik ulushi -0,6 (2020 y. - 55,5%; 2021 y. - 54,9 %) foizni tashkil etmoqda. Shuningdek, sanoat (-0,9%), qurilish (-0,1%), savdo (-0,2%), xizmat ko'rsatish (-0,7%), yuk tashish (-2,2%), yuk aylanmasi (-2,4%), yo'lovchi tashish (-0,7%) va boshqa sohalarda o'tgan yilgiga nisbatan kamaygan.

Bu esa, o'z navbatida, zarar ko'rib ishlayotgan kichik biznes korxonalariga investitsiyalarni jalb etish yordamida ularni rivojlantirishni talab etadi. Shuning bilan birgalikda, kichik biznes sub'ektlarining ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlari, ularning iqtisodiy faoliyatlarida yuzaga kelayotgan muammolar, "ishbilarmonlik sikli"ning barqarorligini ta'minlash, xo'jalik yuritishning boshqa shakllari bilan o'zaro ta'sir va aloqalarni tartibga solish dolzarb yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 11 dekabrda "Korxonalarining bankrotligi to'g'risida"gi qonunchilikni amalga oshirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-1658-son Farmoniga asosan ishlab chiqilgan "Iqtisodiy nochor korxonalarini sanatsiyalash to'g'risida"gi Nizom xo'jalik yurituvchi sub'ektlar – qarzдорlarning to'lov qobiliyatini sog'lomlashtirish hamda tiklash maqsadida o'tkaziladigan nochor korxonalarini sanatsiyalash masalalarini tartibga soladi.

Mazkur Nizomda "sanatsiyalash" tushunchasiga izoh beriladi va uning maqsadiga aniqlik kiritiladi. Jumladan, ta'kidlanadiki, zarar ko'rib ishlaydigan, to'lov qobiliyati bo'lmagan **iqtisodiy nochor korxonani sanatsiyalash** (1-chizma) deyilganda mulkdor, kreditor (kreditorlar) yoki boshqa shaxslar, shu jumladan, davlat tomonidan moliyaviy yordam ko'rsatish yo'li bilan xo'jalik sub'ekti faoliyatini moliyaviy sog'lomlashtirish tushuniladi.

Xo'jalik sub'ektlarning to'lov qobiliyatini tiklash, tovarlar (ishlar, xizmatlar)ga haq to'lash bo'yicha kreditorlar talablarini qondira olish, shu jumladan budjetga va budjetdan tashqari jamg'armalarga to'lovlarni to'lay olish qobiliyatini tiklash, shuningdek korxonalarining samarali faoliyatini davom ettirishi uchun moliyaviy sharoitlar yaratish – sanatsiyalashning maqsadidir.

Zarar ko'rib ishlaydigan, to'lov qobiliyati bo'lmagan yoki iqtisodiy nochor korxonani sanatsiyalashning vazifasi uning barqaror moliyaviy ta'minotini, mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish, sotishni boshqarish, tashqil etish, uning texnika va texnologiyasida zarur qayta o'zgarishlarni oqilona va samarali amalga oshirishni ta'minlashdir.

Sanatsiyalash qarzдор korxonaga xo'jalik sudida uning iqtisodiy nochorligi to'g'risida ish qo'zg'atgunga qadar, shuningdek bankrotlik to'g'risida ish qo'zg'atish chog'idagi dastlabki tadbirlar jarayonida moliyaviy yordam ko'rsatish yo'li bilan amalga oshiriladi.


Korxonani sanatsiyalashning davomiyligi 18 oydan oshmasligi lozim.

Nizomda ta'kidlanishicha, xo'jalik sudining qaroriga muvofiq nodavlat korxonalari uchun sanatsiyalash davri 6 oygacha o'zaytirilishi mumkin.

Sanatsiyalash boshlanishidan 12 oy o'tgach, kreditorlarning talablari umumiy summasidan kamida 40 foizi qondirilishi lozim.

Zarar ko'rib ishlaydigan, to'lov qobiliyati bo'lmagan yoki iqtisodiy nochor korxonaning mulkdorlari, kreditorlar, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar sanatsiyalash sub'ektlari hisoblanadilar. O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasi ho'zuridagi iqtisodiy nochor korxonalar ishlari qo'mitasi davlat nomidan sanatsiyalash sub'ekti sifatida qatnashadi.

Xo'jalik sub'ekting to'lov qobiliyatini tiklash, tovarlar (ishlar, xizmatlar)ga haq to'lash bo'yicha kreditorlar talablarini qondira olish, shu jumladan budjetga va budjetdan tashqari jamg'armalarga to'lovlarni to'lay olish qobiliyatini tiklash, shuningdek korxonalarning samarali faoliyatini davom ettirishi uchun moliyaviy sharoitlar yaratish – sanatsiyalashning maqsadidir.



**1-chizma. Korxonalarni bankrotlik va sanatsiya – tarkibiy o'zgartirish jarayonlaridagi asosiy muammolari**

Zarar ko'rib ishlaydigan, to'lov qobiliyati bo'lmagan yoki iqtisodiy nochor korxonani sanatsiyalashning vazifasi uning barqaror moliyaviy ta'minotini, mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni

ishlab chiqarish, sotishni boshqarish, tashqil etish, uning texnika va texnologiyasida zarur qayta o'zgarishlarni oqilona va samarali amalga oshirishni ta'minlashdir.

Sanatsiyalash qarzidor korxonaga xo'jalik sudida uning iqtisodiy nochorligi to'g'risida ish qo'zg'atgunga qadar, shuningdek bankrotlik to'g'risida ish qo'zg'atish chog'idagi dastlabki tadbirlar jarayonida moliyaviy yordam ko'rsatish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Korxonani sanatsiyalashning davomiyligi 18 oydan oshmasligi lozim.

Nizomda ta'kidlanishicha, xo'jalik sudining qaroriga muvofiq nodavlat korxonalari uchun sanatsiyalash davri 6 oygacha o'zaytirilishi mumkin.

Sanatsiyalash boshlanishidan 12 oy o'tgach, kreditorlarning talablari umumiy summasidan kamida 40 foizi qondirilishi lozim.

Zarar ko'rib ishlaydigan, to'lov qobiliyati bo'lmagan yoki iqtisodiy nochor korxonaning mulkdorlari, kreditorlar, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar sanatsiyalash sub'ektlari hisoblanadilar. O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasi ho'zuridagi iqtisodiy nochor korxonalar ishlari qo'mitasi davlat nomidan sanatsiyalash sub'ekti sifatida qatnashadi.

**Xulosa.** Qattiq raqobat sharoitida xo'jalik yuritishning bozor shakllari alohida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning to'lovga qodir emasligiga yoki ularning vaqtincha to'lovga layoqatsizligiga olib keladi. Biroq, iqtisodiyot barqarorlashgan taqdirda ham, mamlakatda bunday korxonalar bo'lmaydi, deb o'ylamaslik kerak. Masalan, AQShda yangi tashkil etilgan kichik va o'rta korxonalarning qariyb 50 foizi bir yil ichida o'z faoliyatini to'xtatadi. Biroq, qonun tomonidan tan olingan bankrotlar barcha korxonalarning atigi 1% ni tashkil qiladi. Shuningdek, Buxoro viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlariga qaraganda oxirgi 15 yil ma'lumotlariga ko'ra ro'yxatdagi korxonalarning 8 foizdan toki 36 fiozgacha bo'lgan qismi faoliyat yuritmagan va yopilib ketgan<sup>1</sup>. Albatta bu raqamlar ko'rsatib o'tilgan korxonalarning barchasi bankrot bo'lganligini anglatmaydi. Ammo faoliyat yuritmaslik va majburiy yopilib ketish korxonalarning bankrotligining asosiy belgilaridan biri hisoblanadi.

## REFERENCES

1. Azimov, B. F., & Rakhimova, D. D. (2022). The role of research and innovations in the modernization of the regional economy. *Conferencea*, 43-47.

<sup>1</sup> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI BUXORO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI маълумотлари асосида муаллиф томонидан қайта ишланган.  
<https://buxstat.uz/uz/rasmiy-statistika/usreo-2>

2. Азимов, Б. Ф., Рахимова, Д. Д., & Солиев, Д. Н. (2022). Научные основы инновационного подхода к развитию промышленности и сокращению бедности в узбекистане. *Universum: экономика и юриспруденция*, (5 (92)), 14-17.
3. Б.Ф. Азимов, А.Ч. Бобоев, & Ж.Ж. Абдуллаев (2022). ОПРЕДЕЛЕНИЕ ЭКСПОРТНЫХ ДРАЙВЕРОВ РЕГИОНА ПУТЕМ АНАЛИЗА ВНЕШНЕТОРГОВОГО ОБОРОТА БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ. Ученый XXI века, (7 (88)), 20-24.
4. Азимов Бобир Фаттохевич (2019). Ўзбек миллий урф-одатлари инвестицион ва инновацион трансформациялашга мухтожми?. Экономика и финансы (Узбекистан), (8), 33-39.
5. Djunaitov, G. N., & Azimov, B. F. (2023). Oilaviy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash zaruriyati. *Science and Education*, 4(1), 888–896. Retrieved from <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/4919>
6. Азимов, Б. Ф. Экономическая безопасность и ее социально-экономическое значение / Б. Ф. Азимов, Д. Д. Рахимова // Экономическая безопасность социально-экономических систем: вызовы и возможности : Сборник трудов IV Международной научно-практической конференции, Белгород, 28 апреля 2022 года / Под редакцией Е.А. Стрябковой, Н.А. Герасимовой, А.М. Кулик. – Белгород: Общество с ограниченной ответственностью Эпицентр, 2022. – С. 351-354. – EDN PSURWB.
7. Азимов, Б. Ф. Формирование и совершенствование стратегии поддержки инновационной деятельности в регионах Республики Узбекистан / Б. Ф. Азимов // Молодой ученый. – 2022. – № 12(407). – С. 63-65. – EDN VQOYFQ.
8. Qudratova, G. (2024). THE IMPORTANCE OF INNOVATIVE POTENTIAL IN INCREASING COMPETITIVENESS. *Modern Science and Research*, 3(1), 933-938.
9. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2023). Oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirish. *Science and Education*, 4(7), 476-481.
10. Qudratova, G. (2024). THE IMPORTANCE OF INNOVATIVE ACTIVITY IN INCREASING THE COMPETITIVENESS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. *Modern Science and Research*, 3(2), 1257-1261.
11. Mahmudovna, Q. G. (2024). RAQOBATDOSHLIKNI OSHIRISHDA INNOVATSION SALOHİYATNING AHAMIYATI.
12. Mahmudovna, Q. G. (2024). RAQOBAT STRATEGIYALARI, ULARNI AMALGA OSHIRISHDA INNOVATSIYALARDAN FOYDALANISHNING

AHAMİYATI. *IQTISODIYOT VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYA JURNALI* | *JOURNAL OF ECONOMY AND MODERN TECHNOLOGY*, 3(5), 15-21.

13. Mahmudovna, G. G. (2024). COMPETITIVE STRATEGIES, THE IMPORTANCE OF USING INNOVATION IN THEIR IMPLEMENTATION. *IQTISODIYOT VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYA JURNALI* | *JOURNAL OF ECONOMY AND MODERN TECHNOLOGY*, 3(5), 8-14.
14. Muradov S. et al. CAUSES OF NATURAL EMERGENCIES //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 92-130.
15. Muradov S. et al. ANALYSIS OF SAFETY REQUIREMENTS OF EQUIPMENT WORKING UNDER HIGH PRESSURE //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 131-167.
16. Muradov S. et al. CAUSES OF NATURAL EMERGENCIES //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 92-130.
17. Muradov S. et al. CONTENT AND ESSENCE OF THE LAW AND LEGAL DOCUMENTS ON THE PROTECTION OF THE POPULATION AND TERRITORIES FROM EMERGENCIES //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 168-204.
18. Muradov S. et al. STABILITY CALCULATION OF LOAD LIFT VEHICLES //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 205

MODERN SCIENCE  
& RESEARCH